



YANGI TUG‘ILGAN CHAQALOQLARDA QIZILO‘NGACH ATREZIYASINING KLINIK-MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Muxsinova M.X.

Toshkent davlat stomatologiya instituti,

Zafarova M.Z.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining 327-guruh talabasi

Saidov A.B.

ALFRAGANUS universitetining 23/3-guruh talabasi.

mukhsinovamakhzuna@gmail.com

Muammoning dolzarbligi. Qizilo‘ngach atreziyasi – bu hayot uchun xavfli bo‘lgan rivojlanish anomaliyalaridandir, uning uchrash chastotasi 1:2440dan 1:4500.

Aynan qizilo‘ngachning rivojlanish anomaliyasining kombinirlangan bronx-qizilo‘ngach bitishmalarida o‘lim ko‘rsatkichi 85% dan yuqori bo‘lishi, chaqaloqlar erta neonatal davming dastlabki kunlarida aspirasion pnevmoniyadan nobud bo‘lishidir. Bu esa, o‘z navbatida, muammoning yechimini topishda morfologik jihatlariga to‘xtalish va molekulyar genetik tekshiruvlar asosida, mutatsiyaga uchragan genlar ekspressiyani amalga oshirish va target terapiya usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maqsad. Qizilo‘ngachning atreziyalarining klinik-morfologik va immunogistokimyoviy xos jihatlarini o‘rganish.

Tadqiqot materiali va usullar. Material sifatida qizilo‘ngachning rivojlanish anomaliyalarida nobud bo‘lgan chaqaloqlar va TTAKTK jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan va o‘tkazilmasdan nobud bo‘lgan chaqaloqlar avtopsiyasi materiallari tashkil etib, shularda 27 ta holat bo‘yicha qizilo‘ngach materallari olindi. Tayyorlangan bo‘lakchalar morfologik jihatdan o‘rganiladi. Morfologiya: gematoksilin eozin, gistokimyoviy usullardan Van Gizon, SHIK va SHIFF, immunogistokimyoviy usullarda aniq bir markerlar tanlab olinadi. Multipleksli konfokal morfometrik tekshirishlar orqali to‘qima tarkibiy tuzilmalari bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlil etiladi.

Natijalar va muhokama. Qizilo‘ngach atreziyalarida, qizilo‘ngach bo‘shlig‘idagi ovqatni turib qolishi va tez tez refluyukslarni yuzaga kelishi oqibatida, mushak qavatining qisqa muddatli gipertrofiyasi va har xil tugunli ko‘rinishdagi miositlar tutamlari aniqlanadi. Eng qiziqarli jihatlaridan biri, aylanasiimon joylashgan mushak fassiyalari perimetrida shishlarning yuzaga kelishi va mushak tutamlarini gipertrofiyasi, bo‘ylama mushaklarda esa, zigzagsiomi kantrakturali tolalarning ko‘rinishi, qizilo‘ngachning peristaltikasi buzilganligini tasdiqlovchi morfologik substrat hisoblanadi.

Oqibatda, qizilo‘ngach devorlarining nosinxron notekis qalinlashganligi, to‘qima teksturasining o‘zgarishi, kardial qismga yaqin joylarida, har xil kattalikdagi egatchali manzaralar aniqlanadi. Bu esa, qizilo‘ngach devoridagi barcha anatomik qavatlarining



chiqarish va o'tkazish yo'li bo'lmasligi oqibatida, ovqat maxsulotlarini turib qolishi va kistoz kengaygan qizilo'ngachni yuzaga kelganligini tasdiqlaydi.

Qizilo'ngachning shilliq qavati va shilliq osti qavatida joylashgan alveolyar bezlarning keskin kamligi va kistoz kengaygan sohalaridan olingan to'qimalarda, mushak tutamlarining keskin atrofik va sklerotik o'zgarishlari aniqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, qizilo'ngachning peristal-tikasini umuman rivojlanmaganligini va chaqaloqlarda asosan reflyuks yuzaga kelishi va aspiratsiyani rivojlanishiga olib kelish xavfi yuqoriligi bilan xarakteralandi. Qizilo'ngachning barcha anatomik qavatlari oralig'ida shakllangan oralik shishlar va har xil darajada shakllangan yallig'lanish infiltrati tarkibi bo'yicha, gistiositar, limfositar, plazmositar, hujayralardan iboratligi aniqlandi. Bu esa, jarayonni surunkali tarzda homila ichi infeksiyasining ta'sirida yuzaga kelganligini tasdiqlaydi. Mushak qavati qon tomirlarida keskin to'laonlik va diapedez qon quyilish o'choqlari aniqlanadi. Bu esa, aynan, qizilo'ngach atreziyasida turib qolgan ovqat mahsuloti va shilliq qavatning ta'sirlanishidan ikkilamchi ko'rinishdagi patologiyalarni ezofagit ko'rinishida yuzaga kelganligini tasdiqlaydi.

Xulosa.

Xulosa o'mida, qizilo'ngach anomaliyalarida, kistoz kengayish oqibatida, shilliq va shilliq osti qavatlarining bo'kishi, qon tomirlarida notekis to'laonlikni yuzaga kelishi bilan davom etadi. Bu esa, o'z navbatida, kistoz kengaygan qizilo'ngachni reflyuksiga va devorni shilliq qavatida eroziv deskvamativ yaralarning paydo bo'lishiga olib keladi.

